

BARQAROR TURIZM TUSHUNCHASI VA UNING MUHITI

Zokir Rustamovich Sodikov,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Toshkent, O'zbekiston

Barqaror turizm tushunchasini amaliy holatga olib kelish uchun barqaror turizm maqsadlarini aniqlash, maqbul rejalashtirish va boshqaruv doirasini shakllantirish, iqtisodiy, ekologik, atrof-muhitga oid, ijtimoiy va madaniy mezonlar uchun tegishli ko'rsatkichlar saralanishi hamda u ko'rsatkichlarni vaqti-vaqti bilan o'lchash va monitoring qilish talab etiladi. Milliy iqtisodiyotda turizm borasida ko'rsatkichlar samaradorligi muntazam ravishda tahlil qilinishi va baholanishi, dastlabki maqsadlarga erishib, erishmaganligini aniqlash va agar kerak bo'lsa, tuzatuvchi harakatlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ayni paytda, tashqi tomondan olib qaraganda barqaror turizm rivojlanishi borasidagi paradigma hozirgi davrda bahs-munozara qilinmaydigan ko'rinishga ega hisoblanadi. Zero, taklif etilayotgan turizm taraqqiyotining iqtisodiy afzalliklarga ega bo'lishi mahalliy aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar yaratishi va tabiiy muhitga zarar keltirmasligi ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayni paytda, bu ko'zda tutilayotgan maqsadlar nafaqat hozirgi avlodlarga, balki kelajak avlodlarga ham tegishli bo'lishi talab etiladi. Zero, barqaror turizm paradigmasi nisbatan qisqa vaqt mobaynida o'zini asosiy muvaffaqiyatiga erishgandek namoyon qilmoqda.

Ommabop matbuotda ham, ko'plab ilmiy jurnallarda ham ushbu tushuncha, o'tmishdagi turizm jarayonlari bilan bog'liq muammolarni boshqarish va oldini olish uchun vositalarni taqdim etadigan yondashuv sifatida olqishlangan. An'anaviy ommaviy turizmdan tabiatga asoslangan ekologik turizm paradigmasiga o'tish jahon mamlakatlarini, ayniqsa, tabiat bilan bog'liq hududlarda barqaror turizm amaliyotlarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishga undamoqda.


An'anaviy ravishda ommaviy turizm faoliyatlari turizmning eng jiddiy salbiy oqibatlarini keltirib chiqarish borasida mas'ul hisoblanadi. Shuning uchun, keng ko'lamlil turizm faoliyatining taqozosi bo'lgan barqarorlik talablariga ommaviy turizm shart-sharoitlari to'g'ri kelmaydi. Aksincha, bu borada kichik miqyosdagi turistik faoliyatlar, xususan, tabiat turizmi, muqobil turizm va ekoturizm turlari manfaatli va nisbatan mas'uliyatli sifatida ko'riladi. Shu bois bular barqarorlik tamoyillarini birlashtirish salohiyatiga ega bo'lmoqda.

Global iqtisodiy tizimda turizm dunyoning asosiy xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlaridan biri bo'lganligi bois, tabiiy va bunyod etilgan muhitni muhofaza qilish hamda boshqarish orqali iqlim o'zgarishi va global isish bilan bog'liq muammolarni

bartaraf qilish nuqtayi-nazaridan turizm sanoatining kelajakdagi o'sishi va rivojlanishi eng muhim strategik maqsadlarga aylanmoqda. Agar xalqaro turizm keng qamrovli siyosat yuritmayotgan, to'g'ri rejalashtirilmayotgan, yaxshi amalga oshirilmayotgan va boshqarilmayotgan bo'lsa, u nafaqat tabiiy muhitni, balki bunyod etilgan qurilish muhitini ham yo'q qilish salohiyatiga ega bo'ladi.

Jahon bozorida turizmning potensial ta'siri turizm sanoatida faoliyat olib boradigan kishilar tomonidan yaxshi ma'lum. Shu bois 1980-yillarda "barqaror rivojlanish" konsepsiyasining paydo bo'lishi "barqaror turizm rivojlanish" konsepsiyasidan juda oldin emas va ko'p vaqt o'tmasdan uni ekoturizm, muqobil turizm, yashil turizm va mas'uliyatli turizm kabi shakllari paydo bo'ldi.

Ularning barchasi qaysidir ma'noda barqaror turizm bilan bog'liq bo'lsa ham, ammo, ularning hech biri barqaror turizmning sinonimi hisoblanmaydi. Xususan, barqaror turizmning tarkibi quyidagilardan iboratdir:



Ushbu keltirilgan shaklda barqaror turizm bilan turizm sohalari o'rtasidagi bog'liqlik ifodalangan. Xususan, tadqiqotchilarga ko'ra, mahalliy miqyosda ekologik turizm barqaror turizm talablariga to'liq javob beradigan turizmning yagona shakli hisoblanadi. Shuningdek, bu borada mas'uliyatli turizm shakli istisno bo'lib qolmoqda. Chunki uning umumiy ijobiy ta'sirini ta'minlash uchun qo'shimcha xarajatlar talab etiladi. Shu bois, barqaror turizmning birlamchi sharti, mavjud vaziyatda kamchiliklarni bartaraf etish, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yechimlar foydasiga aniq va majburiy maqsadlarni belgilashdan iborat bo'ladi.

Ko'pgina mamlakatlarda turizm kuchli rag'batlantirilayotganini va uning o'sishi kutilayotgani hisobga olinadigan bo'lsa, mas'uliyatli turizm amaliyotlari orqali oldin qilingan va kelajakdagi qilinishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish masalasiga konsentratsiya bo'lish va barqaror turizm siyosati rivojlanishiga yordam berish uchun mavjud turizm siyosatiga profilaktika yondashuvini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqaro amaliyotda turizm siyosati va strategiyalari madaniy, ijtimoiy,

iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'lgan destinatsion (yo'nalish)larni shakllantirish aspektida ishlab chiqilishi kerak bo'ladi.

Shu bois, barqaror turizm destinatsion (yo'nalish)lari uchun tavsiya etiladigan mezonlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ❖ destinatsion (yo'nalish)lar uchun ham barqaror resurslardan foydalanish, hamda atrof-muhitga, iqtisodiyotga va ijtimoiy tizimga ta'sirini hisobga olish talab etiladi.

- ❖ destinatsion (yo'nalish)lar uchun sifat va miqdoriy mezonlarni birlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

- ❖ destinatsion (yo'nalish)lar uchun natijaga yo'naltirilgan mezonlarni va jarayonga yo'naltirilgan standartlarni birlashtirish kerak bo'ladi.

- ❖ destinatsion (yo'nalish)lar uchun mahalliy shart-sharoitlarni aks ettirish muhim hisoblanadi. Chunki barqaror rivojlanish me'yoriy unsurlarga ega mexanizmdir.

- ❖ destinatsion (yo'nalish)lar uchun ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar o'rtasidagi muvozanatni hisobga olish zaruriy hisoblanadi.

- ❖ destinatsion (yo'nalish)lar uchun doimiy ravishda takomillashtirib borish tendensiyasini ko'zda tutish lozim.

- ❖ destinatsion (yo'nalish)lar uchun barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha harakatlarning ustuvorligi borasida shaffoflik ta'minlanishi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019.

3. 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/4143188>.

4. Xaitboyev R. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 248 b.

5. Gulyamova G.P. Turizmda institusional munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: "COMPLEX PRINT", 2019. – 240 b.

6. www.unwto.org.

7. <https://uzbektourism.uz>

8. www.stat.uz